

Uzbekistan Airways Moskvaga qo‘shimcha aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘ymoqda

2022 2 January

Uzbekistan Airways 2022-yil 6-fevraldan boshlab Moskvaga Toshkent, Nukus, Urganch va Termiz shaharlaridan qo‘shimcha qatnovlarni yo‘lga qo‘yadi.

Toshkent – Moskva – Toshkent yo‘nalishidagi aviaqatnovlar haftasiga uch marotaba – yakshanba, dushanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi.

Nukus – Moskva – Nukus yo‘nalishidagi qatnovlar yakshanba, Urganch – Moskva – Urganch payshanba, Termiz – Moskva – Termiz yo‘nalishida parvozlar dushanba kunlari amalga oshiriladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin